ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00786

# 1918-1941 -YILLARDA O‘ZBEKIST0NDA SUZISH SPORT TURINING RIVOJLANISHI TARIXI

**Xurshid Otaquluvich Maxmarizayev**
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

## ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada 1918-1941 -yillarda O‘zbekistonda suzishning rivojlanishi tarixi hamda uning yutuq va kamchiliklari qisqacha ko’rib chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** sport, suzish, musobaqa, spartakiada, suv sporti.

# HISTORY OF DEVELOPMENT OF SWIMMING IN UZBEKISTAN IN 1918-1941

## ABSTRACT

This article summarizes the history of the development of swimming in Uzbekistan in 1918-1941 and its achievements and shortcomings.

**Keywords:** sports, swimming, competitions, spartakiada, water sports.

## KIRISH

Turkistonda ommaviy suzishning dastlabki qadamlari 1918-yilda Vseobuchning yuzaga kelishi bilan bog’liq bo‘lib, u Toshkent xalq universiteti qoshida havaskor suzuvchilar to‘garagining paydobo‘lishiga turtki berdi. Ular Salar yoki Bo‘zsuvdagi o‘zlari yoqtirib qolgan joyda to‘planib, birgalikda cho‘milar yoki suzar edilar. O‘zbekistonda sportcha suzishning rivojlanishi XX asming 20-yillaridan boshlangan. 1920-yilda Toshkent shahrida hozirgi “Paxtakor” stadioni bilan Anxor kanali orasida mashhur akauka shifokor Slonimlaming mablag‘iga 15 m li suzish basseyni va davolovchi solyariy qirildi. Aynan shu zaminda Turkiston respublikasida birinchi suzish maktabi paydo bo‘ldi. Maktabda turli jins va yoshdagi 800 ga yaqin kishi suzishni o‘rgangan.[1] Bu maktabning tashkilotchisi va yagona murabbiysi 1914-yilda AQShdan kelgan Sidney Lvovich Djakson edi. U serqirra sportchi – tashabbuskor bo'lib, uning birinchi shogirdlari - suzuvchilar P.T. Taranov, V.K. Morozov va boshqalar bo‘lgan. 1921-yilda Turkfront Vseobuchi boshqarmasi huzurida Jismoniy tarbiya markaziy kengashining tashkil etilganligi suzishning rivojlanishida qatta rol o'ynadi. 1922-yilda “Fortuna” sport jamiyati yuzaga keldi[2], unda suzish havaskorlarining to'garaklari birlashtirildi va suzish bo‘yicha dastlabki

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00786

jamiyat birinchiliklari oʻtkazildi. Shu yilning oʻzida Toshkent shahri birinchiligi uchun ilk musobaqalar oʻtkazildi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barcha masofalarda S.L. Djakson gʻoliblikni qoʻlga kiritdi. 1924-25 yillarda Toshkent yaqinidagi Boʻzsuv daryosida gidroelektrostansiya qurildi va suzish boʻyicha sport ishlari hosil boʻlgan suv omborida davom ettirildi, biroq bu yerda koʻp vaqtgacha suzish uchun suv stansiyasi yoʻq edi. Keyinchalik suv ombori qirgʻogʻida qayiqlar stansiyasi tashkil qilindi. 1927-yilda Boʻzsuv kanalida TashGRES suv omborida 50 metrlik suzish basseyni boʻlgan birinchi suv stansiyasining qurilishi respublikaning sport hayotidagi katta voqea boʻldi. Shu yilning yozidayoq Samara shahri suzuvehilari bilan uchrashuv uyushtirildi. Samaraliklardan - mazkur musobaqalar ishtirokchisi N.N. Tarasov Toshkentda qolib, suv sporti turlari bo'yicha yoʻriqchi boʻlib ishlay boshladi. Birmuncha vaqt oʻtgach, birinchi suv stansiyasi yaqinida Toshtram xodimlari tomonidan ikkinchi suv stansiyasi qurildi.

Suv stansiyalari suzuvchilaming mashgʻulot oʻtkazadigan sevimli joyiga atlandi, bu yerda koʻplab suv sporti musobaqalari oʻtkaziladigan boʻldi. 1927-yilning yozi oxirida shu stansiyalarda Turkiston harbiy okrugining suzish boʻyicha musobaqalari, shuningdek, I Butun oʻzbek spartakiadasi dasturidagi musobaqalar tashkil qilindi.

Suzishning keng targ'ib qilinishi, jiddiy tashviqot ishlari bunga katta yordam berdi. I-Butun oʻzbek spartakiadasi dasturida suzish umumjamoa hisobiga kiritilmagan edi, “chunki bunda ayrim okruglar, Oʻzbekistonda suv sporti turlari keng tarqalmaganligi tufayli, noteng sharoitlarga tushib qolardi”. Xuddi shu sababga koʻra 1929-yilda oʻtkazilgan, II-Butun oʻzbek spartakiadasida respublikaning shaxsiy birinchiligi uchun kurashlar boʻlib oʻtdi. Shu bilan birga, yuqorida aytib oʻtilgan musobaqalardan keyin yoshlar suzish toʻgaraklariga “oqib” kela boshladilar. Moskvada oʻtkaziladigan Butun ittifoq spartakiadasida ishtirok etish uchun eng yaxshi suzuvchilar saralab olindi. Bu jamoa tarkibiga 5 kishi: 2 nafar ayol - N.Shak va N.Lobova hamda 3 nafar erkak - P.Kravchenko, G.Vasilenko va I.Sadiqov (hammasi Toshkentdan) kiritildi. Oʻzbekistonning suzuvchilar jamoasi spartakiadada yaxshi natija koʻrsata olmadi, faqatgina Turkiston jamoasini ortda qoldirib, 16-oʻrinni egalladi.[3] Shunisi muhim ediki, Butun ittifoq spartakiadasi qatnashchilari mamlakatning eng yaxshi suzuvchilari va oʻsha vaqtda ilgʻor hisoblangan suzish texnikasi, shuningdek, mashg'ulotlar usubiyati bilan tanishdilar.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00786

Oʻzbekistonlik suzuvchilarning Butun ittifoq spartakiadasida ishtirok etishi Buxoro, Andijon singari shaharlarda sportcha suzishning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Buxoro suzuvchilarining mashgʻulotlari shahardagi eng katta sun’iy suv havzasi – Labihovuzda o'tkaziladigan boʻldi, Andijonda esa buning uchun shahar bog'idagi sun’iy suv havzasi tanlab olindi. Murabbiylar P.Kravchenko vaN.Tarasov rahbarligida muntazam mashgʻulotlar, koʻrgazmali musobaqalar boshlandi. Tez-tez suv bayramlari tashkil etiladigan boʻldi, ularda toshkentliklar bilan bir qatorda Andijon suzuvchilari ham qatnasha boshladilar. 1928-yilda Sirdaryo yaqinidagi Xoʻjanddaham suv stansiyasi ishga tushdi.[4]

Suzish boʻyicha oʻquv-sport ishlari sifatini yaxshilashda A.A. Jemchujnikov (1925), I.V. Cherkanning (1927) oʻquv qoʻllanmalari, NA. Butovich tahriri ostida chiqqan “Suzish, suvga sakrash va suv polosi” (1928) kitobi, shuningdek, suzish boʻyicha musobaqa qoidalari katta ahamiyatga ega boʻldi. Shu bilan birga, suzish boʻyicha olib borilgan ishlarning miqyosi va respublikada bu sport turi bilan shugʻullanuvchilar soni yana qator yillar davomida talabga javob beradigan darajada etnas edi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yerli xalq vakillari, ayniqsa, ayollarni suzishga jalb qilish diniy va milliy urf-odatlar tufayli juda qiyin kechdi. Mutaxassis yetishmasdi, qishki suzish basseynlari yoʻq, yozgi bazalar esa kam edi. Tashabbuskorlar bir yozgi mavsumda erishgan natijalar uchun kelgusi yozda yangidan ish boshlashga toʻgʻri kelar, chunki yozda suzish bilan shugʻullanganlar qishda boshqa sport turiga oʻtib ketar edilar. Toʻgʻri, bunday sharoit ashaddiy suzuvchilarning serqirra sportchi boʻlib etishishlariga yordam beradi. Ular gimnastika, suvga sakrash, eshkak eshish boʻyicha musobaqada ishtirok etadigan boʻldilar. S.L. Djakson, N.N. Tarasov, P.V. Kravchenko, P.T. Taranov va boshqa oʻzlarini suv sportchilari deb atovchi koʻpgina suzuvchi faxriylarining sportdagi yoʻli aynan shunday boshlangan. Oʻzbekistonda suzish sport turining rivojlanishida hukumatning “Mamlakatda jismoniy tarbiya harakati toʻgʻrisida”gi qarori jiddiy ahamiyatga ega boʻldi. Shu munosabat bilan suzishga qiziquvchilar soni ancha oshdi, mavjud suv stansiyalari tartibga keltirildi, Poltoratskiy nomli kasalxona (hozirgi ToshMI) qoshidagi 32,5 m li basseyn ishga tushirildi.

Oʻzbek suzuvchilarining asosiy mashgʻulot oʻtkazish joyi Boʻzsuv suv omboridagi suv stansiyalari boʻlib qolaverdi, Poltoraskiy nomli kasalxona basseynidan esa uzoq vaqt davomida faqat davolash maqsadlarida foydalanildi. 1930-

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00786

yilda Toshkentga brass usulida suzish bo‘yicha Moskva chempioni N.Anufrieva keldi. 1932-yilgacha u respublikada o‘tkazilgan barcha musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashdi, shuningdek, ularni tashkil etishda yordam berdi, murabbiy bo‘lib ishladi, o‘z tajribasini yosh suzuvchilar bilan o‘rtoqlashdi. 1931-yil oktyabrida Toshkentga Norvegiya ishchilari sport delegatsiyasining tashrif buyurishi O‘zbekistonning ijtimoiy hayotida ulkan voqea bo‘ldi. Delegatsiya tarkibiga suzuvchilar ham kirgan edi. Chet ellik mehmonlar o‘rtoqlik uchrashuvlari ko‘p sonli tomoshabinlarmng e’tiborni tortdi. O‘zbek murabbiy va sportchilari sportcha suzishning yangi texnikasi bilan tanashdilar. 1931-1934-yillarda “Mehnat va mudofaaga tayyor!” (GTO)[5] Butunittifoq yagona jismoniy tarbiya majmuasining ishlab chiqilishi respublikada suzish bo‘yicha ishlar miqyosini kengaytirdi. To‘g‘ri, O‘zbekiston suvsiz hudud hisoblangani uchun GTO majmuasining suzish buyicha me’yorlarini bajarishi bu yerda talab qilinmagan. Biroq Toshkentda bu ish ommaviy tus oldi. Suzish bo‘yicha me’yorlami topshirishga tayyorgarlik yoshlaming bu amaliy ko‘nikmani egallab olishga qiziqishlarini kuchaytirdi.

Suv havzalari yaqinida joylashgan suv stansiyalarida GTO majmuasi me’yorlarini topshirish musobaqalari tashkil etildi. Bu davrda V.N. Sivinsev, P.V. Kravchenko, N.I. Shak, P.T. Taranov kabi murabbiylar katta ishlarni amalga oshirdilar. 1934-yilda suv bog'ali hududida shahar suv tarmog‘i uchun suv bosim minorasi qurildi, bu yerda suzish bilan shug‘ullanish taqiqlandi, suv stansiyalari esa yopildi. Toshkentlik suzuvchilar eng yaxshi sport bazalaridan mahrum bo‘ldilar. Garchi respublika poytaxtida uncha katta bo‘lmagan uchta basseyn mavjud bo‘lsa-da, ulardan ikkitasi harbiy qism hududida joylashganligi sababli foydalanish uchun noqulay, uchinchisi esa ToshMI tasarrufida va hanuzgacha faqat davolash maqsadlaridagina qo‘llanilar edi. Bu basseyn ham, 1935-yilda to‘qimachilik kombinati tomonidan qurilgan yangi basseyn ham zarur talablarga javob bermasdi: ularning o‘lchamlari nostandart (hatto aylana shaklida), start qutilari va yo‘lkachalari yo‘q. Shuning uchun suzishni yirik sport tadbirlari dasturiga kiritmay qo‘ydilar. Masalan, 1934-yilda u O‘rta Osiyo respublikalari va Qozog‘iston Spartakiadasidasi dasturidan chiqarib yuborildi. Lekin suzish bilan bog‘liq ishlar to‘xtab qolmadi.

Taniqli suzuvchi V.N. Mixaylov murabbiy sifatida O‘rta Osiyo harbiy okrugi yosh suzuvchilari bilan Turkiston harbiy okrugi basseynida suzish bo‘yicha murabbiy bo‘ldi. Keyinchalik ular respublikaning yetakchi murabbiylari bo‘lib yetshidilar. Suzish bo‘yicha ilk bor O‘zbekiston birinchiligi 1935-yilda Andijonda o‘tkazildi. Unda Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon jamoalari to‘la tarkibda qatnashdi. Toshkentdan bor-yo‘g‘i 4 kishi ishtirok etdi. Erkin usulda 100 va 200 m suzishda andijonlik

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00786

N.Davidenko, brass usulida suzishda toshkentlik V.Mixaylov, yonlamasiga suzishda toshkentlik A.Vajnin, 100, 200 va 400 m tredjenda toshkentlik N.Zokirov dastlabki respublika chempionlari bo‘ldilar. Ular ko'rsatgan natijalar unchalik yuqori emas - II razryad darajasida edi. Mazkur musobaqalami tahlil qilar ekan, suzish bo‘yicha murabbiy N. Shax “O‘zbekiston fizkulturachisi” gazetasining 1935-yil 23-avgust sonida yozgan edi: “O‘tkazilgan musobalar, natijalaming pastligiga qaramay, suv sportiga foyda keltirdi. Musobaqa ishtirokchilari suzish uslublari to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘ldilar va o‘zaro jipslashdirlar, uyga qaytgach, ularni kuch bilan bu go‘zal, lekin, afsuski, bizda keng ommalashmagan sport turini qo‘zg‘atib, taraqqiy ettirishlari kerak”.[6] Quyiroqda ta’kidlanishicha, jamoalar joylarda saralash musobaqalarini o‘tkazmay, da‘vogarlaming u yoki bu usulda suzishni bilishlari haqidagi gaplariga ishonib shakllantirilgan. Oqibatda ayrim ishtirokchilar start oldidan suzish usulini bilmasliklarini aytib, suvga tushishdan bosh tortdilar. Yana aytib o‘tildiki, Andijonda ajoyib basseyn bo‘lishiga qaramay, mutaxassislar yo‘qligi tufayli unda ish olib borilmayapti.

Shu yilning o'zida basseynda O‘rta Osiyo harbiy okrugi spartakiadasi dasturiga ko‘ra suzish musobaqalari o‘tkazildi, ToshMI basseynida esa shu yili ham, keytingi yillarda ham Toshkent birinchiliklari tashkil etildi. Sport jamoatchiligi suv sporti bazalarida yuzaga kelgan og'ir holat bilan murosa qilolmadi. Respublika va Toshkent shahri matbuoti yana o‘lkada suv sporti turlarini rivojlantirish, suzish basseynlarini qurish masalasini ko‘ndalang qo‘ydi. 1936-yil 12 martda “O‘zbekiston fizkulturachisi”da bosilgan maqolada shunday so‘zlar bor edi: “Bo'zsuv suv stansiyasi - yoshlaming sevimli maskani ishlab turgan kunlar barchaning yodida. Erta bahordan boshlab Toshkentning minglab mehnatkashlari ayniqsa, yoshlar mazkur suv stansiyasini to‘ldirar edilar. Bu yerda suzish, suvga sakrash, eshkak eshish bo‘yicha musobaqalar o'tkazilar, shuningdek GTO me’yorlarini topshirish amalga oshirilardi. Suv quvurlari o‘tkazilishi bilan stansiya berkitildi. Shundan so‘ng suzish ishlari to‘xtab qoldi, 1935-yilda Andijonda o'tkazilgan birinchilikka esa respublikadan bor-yo‘g‘i 20 nafar suzuvchi to‘plandi, ular orasida biror ayol kishi yo‘q edi. Basseynlar kerak, suv sportini joylantirish zarur”.[7] Shuningdek, gazeta 1934-yil uchun GTO majmuasining suzish bo'yicha me’yorlarini 19 kishigina topshirganini ta’kidladi. S.L. Djakson va boshqalar shu gazetaning 1936-yil 24-mart sonida ko‘targan masalalar yuqoridagiga hamohang edi. Suzish bo'yicha rejalashtirilgan ayrim tadbirlar umuman o‘tkazilmadi. Masalan, 1936-yilda III Butuno'zbek spartakiadasi munosabati bilan Andijon va Toshkentda uyushtirilishi kerak bo‘lgan suv bayramlari amalga oshirilmadi, spartakiada dasturida ham suzish sport turi yo‘q edi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00786

1936-yilda hukumat va yoshlar tashkilotlarining yordami bilan O‘zbekistonda suzish mashg‘ulotlari uchun moddiy baza sezilarli darajada kengaytirildi. 1936-yil oxirida Toshkentda Temiryo‘lchilarning madaniyat va istirohat bog‘ida 25 metrli ochiq basseyn qurildi, uning qoshida 1937-yilda shaharda birinchi suzish bo‘yicha bolalar sport maktabi ochildi. Maktabga V.N. Mixaylov rahbarlik qila boshladi. 1937-yildagi O‘zbekiston birinchiligi to‘qimachilik kombinati basseynida o‘tkazilib, u suzuvchilarga katta muvaffaqiyatlar olib keldi. Musobaqqada oltita KSJ vakillari bo‘lgan 50 kishi qatnashdi. 8 ta respublika rekordi qayd etildi. Brass usulida suzishda dinamochi S.Kolesov rekord o'rnatdi: 100 m - 1.35.5 sek\ 200 m - 3.35,7 sek; 400 m - 7.01,8 sek. Ko‘krakda krol usuli bilan suzishda V.Glushchenkov rekordlar o‘rnatdi: 100 m - 1.07.7 va400 m - 5.09,5 sek. U “ O‘qituvchi” KSJ jamoasi vakili edi.[8] Uning 400 m masofaga suzishda ko‘rsatgan natijasi ittifoqda eng yaxshi bo‘lsa ham, bu natija O‘zbekiston rekordi sifatida qayd etilmadi, chunki V.Glushchenkov bu vaqtda Xarkov aviatsiya instituti talabasi edi.

1938-yilda suzish basseynlari sport mashg‘ulotlari o‘tkazish uchun yaroqsiz holga keldi, chunki ular oddiy cho‘milish joylariga aylanib qoldi. Yana sport basseynlari, suv stansiyalarini qurish masalasi ko‘ndalang bo‘ldi. Yoshlar kuchi bilan Toshkent va Samarqandda sun’iy ko‘liar uchun havzalar tayyorlana boshladi. Temir yo‘lchilar bog‘idagi suzish basseyni ko‘mib tashlandi, uning o‘niga 1939-yilda Toshkent aholisi tomonidan jamoatchilik asosida 9 gektarlik bog‘ hududida Komsomol ko‘li yuzaga keltirildi. Ko‘lda, suzuvchi sollarda 2 ta yirik suv stansiyasi qurildi: 1939-yilning kuzida “Spartak”[9], 1940- yil bahorida “Dinamo” (keyinchalik “Mehnat”)[10] stansiyalari paydo bo‘lib, ular uzoq yillar davomida O‘zbekiston suzuvchilarining asosiy tayyorgarlik bazasiga aylanib qoldi. Respublika suzish seksiyasi tashkil etildi, yetakchi murabbiylar A.K. Smirnov (O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan murabbiy), V.N. Mixaylov, P.M. Borodkin, N.TSybuljenko, N.M. Kofper va V.T. Bondarenko (SSSRda xizmat ko‘rsatgan murabbiy) shu yerda faoliyat ko‘rsata boshladilar Seksiya O‘zbekistonda suzishni rivojlantirishning turli tashkiliy va usuliy muammolarini malakali hal etar, respublika miqyosidagi musobaqalami tashkil qilar edi. Suzish bilan shug‘ulla-nuvchilar soni ortib, bu sport turidagi natijalar o‘sib bordi. 1939-yilda O‘zbekiston suzish federatsiyasi yuzaga keldi. Federatsiyaning birinchi raisi etib A.K. Smirnov saylandi.[11] Keyinchilik federatsiyani U.S. Bektemirov, F.I. Raximov, O.K. Adamanov boshqardilar. 1941-yilga kelib, 33 nafar I razryadli, 12 nafar 2 razryadli va 30 nafar 3- razryadli sportchilar tayyorlandi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00786

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 1918-1941-yillarda O‘zbekistonda suzish sporti bir qadar ijobiy o‘zgarishlarni boshidan kechirdi va ma‘lum darjada yutuqlarga erishdi. Bu o‘z navbatida keyingi yillarda suzish bo‘yicha ishlaring tashkil etilish darajasi yaxshilandi, O‘zbekitsonning yetakchi suzuvchilari sport natijalari ko‘tarildi, yangi qobiliyatli sportchilar paydo bo‘lishida asosiy rol o‘ynadi.

## REFERENCES

1. Хайдаров, М., Алламуратов, М., & Хайруллаева, Н. (2021). Сравнительная оценка физического состояния подростков 11-16 лет с нарушением интеллекта. *Academic research in educational sciences*, *2*(Special Issue 1).
2. Сафарова, Д. Д., Пулатова, М. Д., & Султанова, Ю. А. (2017). Взаимоотношения показателей гемодинамики с проявлением физической работоспособности у спортсменок-дзюдоисток. *Наука и спорт: современные тенденции*, *14*(1).
3. Пўлатова, М. Д. (2020). Применение восстановительных комплексов после травматических повреждений квалифицированных борцов. *Интернаука*, (8-1), 22-23.
4. Шукурова, С. С., Пулатова, М. Д., & Серебряков, В. В. (2021). Изменения показателей макроэлементов в крови у футболистов после физической нагрузки. *Academic research in educational sciences*, *2*(Special Issue 1).
5. Шукурова, С. С., Сейдалиева, Л. Д., & Шарипова, С. Н. (2021). Анализ гемодинамики игроков во время тренировочного процесса. *Academic research in educational sciences*, *2*(Special Issue 1).
6. Қутлимуратов, И. Х. (2021). Футболчиларнинг турли йўналишлардаги тўпни ошириб бериш ҳаракатларини ўрганиш. *Academic research in educational sciences*, *2*(Special Issue 1).
7. Nazirov, B. S. (2020). Master who devoted his life to sports. *Theoretical & Applied Science*, (6), 78-82.
8. Алиев, И. Б. (2020). Курашчиларнинг мусобака олди тайёргарлик боскичларидаги толикиш белгиларини турли х, ажмдаги таъсирига караб юкламаларни таксимлаш. *Фан-спортга,(2)*, 42-45.
9. GAZIEV, S. (2020). Improving the speed-strength preparedness of sambo wrestlers at the stage of sports improvement. *Фан-Спортга*, (1), 56-60.
10. Bakhtiyorovich, O. B. Improvement of methodology of development of technical and tactical methods with rapid power of belbog wrestlers.
11. Madraimov, H. K., & Aliyev, I. B. (2020). Distribution of training loads, taking into account the pre-competition training of freestyle wrestlers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *10*(9), 348-351.
12. Назаров, Н. Н., & Юсупов, Н. М. (2012). Философские особенности и развитие футбола в республике узбекистан. *Педагогические науки*, (3), 93-96.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00786

13. НАЗАРОВ, Н. (2020). Мутафаккирлар илмий меросларидан фойдаланган ҳолда спортчи ёшларнинг ахлоқий ва эстетик қарашларини шакллантириш. *Фан-Спортга*, (3), 38-41.
14. Egamberdiyev, I. O. (2021). Unconventional development of balance on land in young kayakers. *Academic research in educational sciences*, *2*(2).
15. Geyger, A. I. (2021). Immunity of swimmers in the conditions of modern training. *Academic research in educational sciences*, *2*(2).
16. Собирова, Ш. У. (2019). Использование рекламных текстов в обучении иностранному языку. *Молодой ученый*, (18), 48-50.
17. Avlaev, O., & Maripov, E. (2020). The problem of emotional situations like childhood, anxiety and fear. *SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR)*, *9*(3), 24-28.
18. Норбоева, Ф. Р. (2020). Перевод маркетинговых терминов в сфере спорта с английского языка на русский. *Интернаука*, (26-2), 27-28.
19. Норбоева, Ф. Р. (2020). Процесс преподавания иностранного языка в неязыковом вузе. *Интернаука*, *20*(149 часть 2), 74.
20. Rakhmatullayevna, N. F. (2020). The role of modern pedagogical technologies in the education system. *Наука и образование сегодня*, (6-2 (53)).
21. Xolisov, B. A. (2017). Yangi iqtisodiy siyosatning turkiston xalq xo'jaligiga ta'siri. *ЎзМУ хабарлари*, 129-132.
22. Jurayev, I. B. (2021). Futzal hakamlarining jismoniy tayyorgarlilarini yaxshilash hamda mavsumiy topshiriladigan fifa fitness testiga tayyorlash. *Internauka*, *4*(180), 75-77.
23. Mengliboyev, A. X. (2020). Tarixiy shaxslarning milliy manfaatlar uchun kurashi tarixidan. *Ўтмишга назар*, 215-219.
24. Xojiyev, S. S. (2021). Yosh xokkey darvozabonlarining shaybani to‘sish harakatlari samaradorligini oshirish. *Internauka*, *5*(181), 99-101.
25. Шукуров, М. Н. (2021). Курашшиларнинг организмига кластерланган махсус тайерлов техник машқларининг таъсири. *Наманган Давлат Илмий Ахборотномаси*, 366-369.
26. Ёқубова, Д. Т. (2020). Сурхондарё вилоятида ингичка толали пахтадан юқори ҳосил олиш агротехникасининг ривожланишида м.с. истоминнинг фаолияти. *Хоразм маъмун академияси ахборотномаси*, 120-123.